HOMILADORLIK MUDDATLARINI ANIQLASH

Turdiyeva Marg'ubaxon
O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyati
Qo'rg'ontepa Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat
salomatligi texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada zamonaviy hamshira homilani muddatini aniqlashda tibbiy muolajalar tehnikasini bajarishini bilishi bilan birga, bemorning homiladorlik tufayli yuzaga kelgan va kelishi mumkin bo'lgan, ruhiy, ijtimoiy muammolarni aniqlay olishida yordam ko'rsatish to'grisida to'htalib o'tilgan.*

Kalit so`zlar: *Homiladorlik, Leopol'd Levitskiy usuli, Malish apparati, yurak urishi.*

Homiladorlikning anik yoki shubxasiz belgilari quyidagichadir.

1. Homiladorlik taxminan 15-20 xaftalik bo'lganda xomilannng yurak urishi korin devori orqali, oddiy akusherlik stetoskopi bnlan anik eshitiladi. Yurak urishini «Malish» deb ataladigan apparat yordamida xam eshitsa bo'ladi. Buning uchun korin devori satxiga vazelin surtib, uning eshitadigan qismini korin devori bo'yicha surib, xomilagashg yurak urayotgan sohasi topiladi, bunda apparat yordamida yurak urshsh sanaladi (minutiga 130-140 marta uradi).

Ona organizmidan qorin devori orkali eshitiladigan tovushlarga quyidagilar kiradi:

a) homilaning yurak urishi bilan bir vaqtda bo'ladigan korin aortasining urishi va bachadon yon devorlaridagi katta kon tomirlarda bo'ladigan shuvillagan shovkin;

b) ichaklarning peristalьtik (to'lkinsimon) xarakati tufayli xosil bo'ladigan ritmsiz shovkin;

v) xomilaning ko'lo-yoqlari kimirlashi natijasida xosil bo'ladigan va kiyinlik bilan eshitiladigan bo'g'ik tovush.

Homilaning yurak urishi homiladorlikning ikkinchi yarmidan boshlab eshitila boshlanadi. Agar homilaning boshi oldinga egilgan bo'lib, uning orkasi bachadonning biror devoriga yakin turgan bo'lsa, uning yurak urishi orqa tomondan yaxshi eshitiladi. Agar homila yuzi bilan kelib, boshi orqaga egilgan bo'lsa, uning orqasi bachadon devoridan uzoklashadi va ko'kragi bachadon devoriga tegib turadi. Bu holda uning yurak urishi ko'krak tomonidan yaxshiroq eshitiladi. Homila boshi bilan oldin kelganda uning yurak urishi ona kindigidan pastda, chanoga bilan kelganda ona kindigi karshisida yoki undan yuqoriroqda, ko'ndalang kelganda ona kindigi ro'parasida, tug'ish jarayonida homilaning boshi chanok ichiga kirganda ona korni o'rta chizig'ida (simfiz ustida) eshitiladi.

Homilada asfiksiya (bo'g'ilib kolish) ro'y berganda uning yurak urishi asfiksiya boskichiga qarab minutiga 100-110 marta urishi yoki tezlashib, 150 va undan xam tez ura boshlaydi. Homiladorlikning birinchi yarmida xomilaning tirik ekanligini, normal o'sayotganligini, bachadonning o'sishini kuzatish va ulьtratovush yordamida aniqlash mumkin. Odatda sog'lom onaning tomir urishi homilanikiga qaraganda bir yarim barobardan kam bo'ladi, buni homilaning yurak urishidan farq qilish uchun xomilaning yurak urishi onaning bilak tomiri urishi bilan solishtiriladi.

2. Ob'ektnv tekshirilganda homiladorlik 20 haftalik bo'lgandan boshlab xomilaning kimirlashi aniq bilinadi. Homiladorning o'zi ham xomilaning

kimirlaganini ancha ilgari sezishi mumkin. Lekin buni ayol ichaklar peristalьtikasi bilan almashtirishi va yanglish ma’lumot berishi mumkin.

3. Ultratovush yordamida xomila skeletini va yurak urishini, undagi mavjud nuksonlarni ko’rish mumkin .

4. Paypaslab ko’rish usulida (Leopol’d Levitskiy usuli) xomila holatini aniklash mumkin. Homiladorning qornini paypaslab (ushlab) ko’rish usuli xomila kismlarining katta-kichikligini, homilaning bachadonda joylashish xolatini, oldin keluvchi qismining qaerda ekanligini (chanokka kirishdan yukorida, chanokka kiraverishga suqilgan holatda yoki kichik yoki katta segment bilan turganligi) ni aniklashdan iborat. Homilador ayolning kornini paypaslab ko’rish uchun tekis karavotga chalqanchasiga, oyoklarini tizza va yonbosh bo’g’imlaridan bukkan holda yotqiziladi, shifokor uning o’ng tomoniga o’tiradi.

Homilador ayol kornini paypaslab tekshirish vaqtida akusherlik tekshiruviniig to’rtta aniklangan usulidan foydalaniladi .

Birinchi usul. Bachadon tubining balandligi va uning tubida homilaning kaysi kismi borligini aniqlash uchun qo’llaniladi.Buning uchun ikkala ko’lning kafti bilan barmoqlari birbiriga qaragani holda, bachadon tubini ushlab, u yengilgina pastga bosiladi. SHunda bachadon tubining turgan balandligi va homilaning yotish holati anik bilinadi.

Homilaning o’sishi va muddati bachadon tubining kaysi balandlikda turganligiga karab aniklanadi. Agar bachadon tubida homilaning katta kismlari aniklansa, bu uning to’g’ri yotganligini ko’rsatadi. Agar paypaslaganda bachadon tubida homilaning dumbasi borligi aniklansa, bu oldin keluvchi kism bosh ekanligani, aksincha, bachadon tubida xomilaning boshi borligi aniklansa, chanog’i bilan oldin kelishini ko’rsatadi.

Ikkinchi usul bilan xomilaning orkasi va mayda qismlarining turishiga qarab, uning kanday holatda ekanligi aniklanadi. Buning uchun ikkala ko’l bachadan tubidan uning yoniga o’tkaziladi.

Ikkala qo’l barmokdari galma gal bosib ko’rish yo’li bilan bachadon paypaslanadi. O’ng ko’l bilan paypaslaganda chap qo’l kimirlamay, bachadon devorida turishi kerak. Bu usul bilan bir tomonda tekis yuza — homila orkasini, qarama qarshi tomonida esa, uncha katta bo’lmagan va o’z turishini tez o’zgartiradigan dumbokli yuza, homilaning mayda qismlari (oyok, ko’llari) aniqlanadi.

Homila orqasining chapga yoki o’ngga karagan bo’lishiga qarab, uning I yoki II holatda ekanligi aniqlanadi. Agar homilaning orkasi onaning chap biqiniga karagan bo’lsa, I xolat, o’ngga qaragan bo’lsa II holatda yotgan bo’ladi.

Homilaning oldinda keluvchi qismini va uning kichik chanoq bo’shlig’iga bo’lgan nisbatini aniqlashda akusherlik tekshiruvining uchinchi usuli qo’llanadi. Buning uchun qo’lning katta barmogi bachadon pastki segmentining bir tomonidan, qolgan 4 ta barmok esa ikkinchi tomonida turgan xolda, xomilaning oldinda keluvchi kismi ushlanadi, so’ngra ko’lni bir oz pastga bosib, oldinda keluvchi kismi barmoklar bilan ushlangan xolda juda extiyotkorlik bilan asta sekin o’ngga va chapga kimirlatiladi. Bunda xomila boshi bilan turgan bo’lsa, qattik, dumalok, dumba bilan turgan bo’lsa, yumshokroq va xajmi kichkinaroq bo’lib bilinadi. Agar oldin keluvchi kism (bosh yoki dumba) xarakatchan bo’lsa, bu uning chanokning kirish kismidan yuqorida turganini, qimirlamaydigan bo’lsa, chanoqning kirish kismida sukilib turganini ko’rsatadi. Homila ko’ndalang yoki kiyshik yotgan takdirda oldinga keluvchi kism bo’lmaydi.

Akusherlik tekshiruvining uchinchi usulida odatda ayol og’riq sezadi, shunga ko’ra, ko’pincha bu usul o’rniga to’rtinchi usul qo’llaniladi.

To’rtinchi usul yordamida oldinda keluvchi qismning turgan joyi xamda u chanokning kaysi yuzasida turganligi aniqlanadi.

Leopold Levitskiyning 4 - usuli


Akusher xomiladorning oyok tomonida turgan holda ikkala qo'li kaftini bachadon pastki kismining o'ng va chap tomoniga ko'yadi va pastga tomon asta bosadi, bunda tekshiruvchi o'z qo'lini homilaning oldinda keluvchi kismi bilan chanok kirish qismiga yuboradi, shu yo'sinda paypaslash yordamida oldinda keluvchi qismni va uning turish holatini (kichik chanokka kirshp kismining ustidaligini yoki chanoq ichiga o'tganligini) aniklaydi. SHu usul bilan yana boshning katgakichikligi, ensa, peshona, engakning turgan joyi va tug'ish jarayonida boshning chanokka tushish xolatlari aniqlanadi.


Amaliy mashg'ulot: Xomiladorlik davrida xamshiralik parvarishi. Xomiladorlik davrida xamshiralik parvarishi.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: O'quvchilarda Xomiladorlik fiziologiyasi va diagnostikasi mavzusi bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'rgatish va shakllantirish.

1- Muolaja nomi: Xomilador ayolni tashqi tekshiruv usuli (Leopold-Levitskiy-Lazerovich)

T/r	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar, asboblar va jixozlar	Eskizlar, chizmalar , rasmlar	Bajarish tartibi
1	Qo'llar yuviladi va antiseptik vositalar bilan qo'lga ishlov beriladi.	suv, suyuq sovun, salfetka, antiseptik vosita		6. Jo'mrak ochiladi va qo'llar namlanadi. 7. Kaft ichiga suyuq sovun olinadi. 8. Qo'llar bosqichma-bosqich yuvib tozalanadi. 9. Salfetka yordamida


				quritiladi. 10. Antiseptik vositalar bilan ishlov beriladi
2	Xomilador ayolga muolaja maqsadi tushuntiriladi.	Kushetka Xomiladorlik kartasi 111/U		3. Muolaja uchun kushetka tayyorlanadi 4. Ayol kushetkaga chalqancha yotqiziladi. 5. Qorin soxasi ochiladi
3	Amallar ketma ket bajariladi. Bu tekshiruv usuli xomiladorlikni 2-yarmidan o'tkaziladi.	Kushetka Xomiladorlik kartasi 111/U		**1-amal.** 1. Ikkala qo'l kaft qirralari bachadon tubiga qo'yiladi. 2. Bachadon tubi balandligi aniqlanadi. 3. BTBda xomilaning qaysi qismi yotganligi aniqlanadi.

			  	**2-amal.** 1. Ikkala qo’l kaftlari bachadon yon devorlariga qo’yiladi. 2. Xomila pozitsiyasi va turi aniqlanadi. 3. Agar xomilaning umurtqa pog’onasi bachadon devorining chap tomonida bolsa 1-pozitsiya 4. Agar xomilaning umurtqa pog’onasi bachadon devorining o’ng tomonida bolsa 2-pozitsiya **3-amal.** 1. O’ng qo’lning birinchi barmog’i qolgan barmoqlardan maksimal uzoqlashtiriladi. 2. Chanoq kirish qismi paypaslanadi. 3. Bunda xomilaning oldinda keluvchi qismi aniqlanadi. **4-amal.**

				1. Xomilador ayol oyoqlariga yuzlanib turiladi. 2. Ikkala qo'limiz chanoq kirish qismiga joylashtiriladi. 3. Bunda xomila oldinda keluvchi qismini chanoqqa munosabati aniqlanadi.

2-Muolaja nomi: Qorin aylanasi va bachadon tubi balandligini aniqlash.

T/r	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar, asboblar va jixozlar	Eskizlar, chizmalar, rasmlar	Bajarish tartibi
1	Qo'llar yuviladi va antiseptik vositalar bilan qo'lga ishlov beriladi.	suv, suyuq sovun, salfetka, antiseptik vosita		1. Jo'mrak ochiladi va qo'llar namlanadi. 2. Kaft ichiga suyuq sovun olinadi. 3. Qo'llar bosqichma- bosqich yuvib tozalanadi. 4. Salfetka yordamida quritiladi. 5. Antiseptik vositalar bilan ishlov beriladi
2	Xomilador ayolga muolaja maqsadi tushuntiriladi.	Kushetka Xomiladorlik kartasi 111/U		1. Muolaja uchun kushetka tayyorlanadi

3	Xomilador ayolni muolajaga tayyorlanadi	Kushetka , oqlik, smli lenta		1. Ayol kushetkaga chalqancha yotqiziladi. 2. Qorin soxasi ochiladi
4	Xomilador ayolning qorin aylanasi va bachadon tubi balandligi xar oy o'sib borishi kerak	Kushetka Xomiladorlik kartasi 111/U, sekundomer, stetaskop.		1. Birinchi navbatda Leopold-Levitskiy usuli bachadon tubining balandligi aniqlanadi. 2. Shundan so'ng smli lentani bir uchini simfizga, ikkinchi uchini bachadon tubi aniqlangan soxaga qo'yiladi.
				3. Olingan natija xomilador ayolning shaxsiy kartasiga yozib qo'yiladi.

5	Qorin aylanasi o’lchanadi.	Smli lenta, kushetka		1. Smli lentani bir uchi kindik damiga qo’yiladi. 2. Ayoldan bel soxasini ko’tarib turishini so’raymiz va smli lentani ikkinchi uchini aylantirib o’tkazamiz. 3. Olingan natija xomilador ayolning shaxsiy varaqasiga qayd etiladi.
6	Xomila taxminiy vazni aniqlanadi.			1. Qorin aylanasi va bachadon tubi balandligi chiqqan natijasi bir biriga ko’paytirilsa xomilaning ona qornidagi taxminiy vazni kelib chiqadi. 2. masalan QA-95sm BTB -32 sm 95*32= 3040 gramm

ADABIYOTLAR

1. Jabborova Yu.Q., Ayupova F.M. “Akusherlik” – Toshkent-2008.

2. Bodyajina V.I., Jmakin K.N., Kiryuщenkov A.P. «Akusherstvo» – M., 1995.

3. Aylamazyan E.K. «Akusherstvo» - S.P., 2002.

4. Chernuxa Ye.A. «Rodovoy blok» – M., 1991.

5. Serov V.N., Strijakov A.N., Markin S.A. «Rukovodstvo po prakticheskomu akusherstvu», 1997.

6. Nisvander K., Evans A. «Akusherstvo» Spravochnik Kaliforniyskogo universiteta. (Perevod s angl.) // M., 1999.